

TO'G'RIDAN-TO'G'RI XORIJIY INVESTITSİYALARINING MAZMUN- MOHIYATI, ILMIY-NAZARIY JIHATLARI

Turdimuratova Aziza Alisherovna

Termiz agrotexnologiyalar va innovatsion rivojlanish instituti

Agrobiznes, buxgalteriya hisobi va raqamli texnologiyalar kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya:

Ushbu maqolada to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarining mazmun-mohiyati, ilmiy-nazariy jihatlari, mamlakatimiz iqtisodiyoti tarmoqlarini jadal rivojlantirish, globallashtirish sharoitida xalqaro iqtisodiy munosabatlarda davlatlar o'rtasida investitsiyaviy hamkorlik qilish, to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni jalb qilishdagi asosiy muammolar haqida to'liq fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: xorijiy investitsiyalar, iqtisodiyot tarmoqlari, asosiy kapital, iqtisodiy munosabatlar, investitsiya infratuzilmasi.

Kirish:

Davlatimiz iqtisodiyoti tarmoqlarini yanada takomillashtirish, ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish va modernizatsiya qilish, sanoat, xizmat ko'rsatish va qishloq xo'jaligi sohalariga zamonaviy texnologiyalarni keng joriy qilish, yuqori qo'shilgan qiymatli eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarish hajmlarini oshirish, investitsiya jarayonlarini yanada jadallashtirish va hududlarga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni faol jalb etish hamda joylarda yuqori daromadli ish o'rinlarini yaratish va aholi bandligini ta'minlash hozirgi vaqtdagi eng jiddiy va dolzarb vazifalardan biri sanaladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya:

Globaldashuv muhitida xalqaro iqtisodiy munosabatlarda mamlakatlar orasida investitsiyaviy hamkorlik qilish roli yanada ortib bormoqda. Jahon davlatlarda barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish va ulardan samarali foydalanish asosiy ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, iqtisodiy o'sish suratlari yuqori bo'lgan rivojlanayotgan mamlakatlarga alohida e'tibor berilmoqda.

Oxirgi 20 yil davomida umuman to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar va shuningdek, o'tish iqtisodiyotini boshdan o'tqazayotgan davlatlardagi xorijiy investitsiyalarga doir ko'pgina nazariy va empirik tadqiqotlar amalga oshirildi.



Bunday davlatlarda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimi ularni qabul qilayotgan davlatdagi va ayni paytda investor-mamlakatdagi turli omillarga va jarayonlarga bog'liqdir. Shu sababdan ham to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalari bo'yicha universal modelni tasavvur qilish o'ta murakkab jarayon sanaladi.

Natijalar:

Binobarin, har qanday davlat jahon tajribalarini o'rganmasdan, dunyodagi yetakchi mamlakatlarning ilm, fan va texnika sohasida erishgan yutuqlarini qabul qilmasdan turib takomillasha olmaydi. Shuningdek, mamlakat iqtisodiyotining kelajakdagi taraqqiyoti asosan investitsiyalarga, xususan biznesda paydo bo'lishi mumkin bo'lgan tavakkalchilikka va o'zaro ishonchga asoslangan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarga bog'liqligini deyarli hamma xo'jalik yurituvchi subyektini yaxshi tushunadi.

To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar iqtisodiyotida asosiy rol o'ynaydi. To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning ishlab chiqarish va bandlik darajasini oshirishga, ichki kapital bozorini to'ldirishga ta'sir qiladi. To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni yanada samarali jalb etish uchun har bir mamlakat investitsiya sharoitini yaxshilashga, investitsiyalarni ko'paytirishga va samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan samarali investitsiya siyosatini ishlab chiqadi; xorijiy investorlarga bir qator imtiyoz va preferensiyalar yaratadi; investorlarning huquq va manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlar to'plamini qabul qiladi.

Muhokama:

Jahonda globallashtirish jarayonlarining tezlashib borishi bugungi kunda mamlakatlar iqtisodiyotida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish imkoniyatini oshirishni taqozo qilmoqda. "To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya mamlakat iqtisodiyotini takomillashtirishda eng muhim omillardan sanaladi". Dunyo mamlakatlari ilmiy tadqiqotlarida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda davlat mulking va davlat ulushi bo'lgan xo'jalik yurituvchi jamiyatlarning ishlab chiqarish maydonlari va ob'ektlaridan samarali foydalanish, investitsiyalarni faol jalb qilish uchun qulay muhitlarni rivojlantirish, yangi raqobatbardosh ishlab chiqarishlarni va kichik korxonalarini takomillashtirishni yanada qo'llab-quvvatlash masalalariga alohida e'tibor berilmoqda.

To'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni jalb qilishdagi muhim masalalar sifatida quyidagilarni keltirish mumkin: investitsiya infratuzilmasining yetarli darajada



rivojlanmaganligi; tijorat banklari, investitsiya fondlari, sug'urta va lizing kompaniyalarining investitsiya loyihalarini amalga oshirishda ularning ishtirokini samarali yo'lga qo'yilmaganligi; sifatli va talab darajasidagi malakali ishchi kuchining yetishmasligidan iborat.

Xulosa:

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni davlat iqtisodiyotiga jalb qilish bo'yicha turli xil yondashuvlar bo'lib, ularning asosiy maqsadi mamlakat iqtisodiyotini shakllantirish imkonini yaratishi kerak. Shuningdek, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni taqsimlashda cheklashlar va iqtisodiyotning ustuvor yo'nalishlarini rivojlantirishda investitsiyalarni rag'batlantirish, xususiy mulkni daxlsizligi kafolatlarini mustahkamlashda davlatning rolini oshirish maqsadga muvofiq.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. G.M.Galeeva and E.N. Kadeeva. Problems of attracting foreign direct investment into the regional economy. // Journal of Physics: Conference Series, 2021.
2. Dunning, J.H., The Eclectic Paradigm of International production: Past, Present and Future, International Journal of the Economics of Business 2001.
3. A.B.Vaxobov. Xorijiy investitsiyalar. – Toshkent: Moliya. – T. – O'quv qo'llanma. 2010.
4. A.S.Azizov. To'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar jalb qilishda moliyaviy-iqtisodiy va mamlakat xatarlarini kamaytirish. Iqt. fan. bo'y. fals. dokt. diss. Avtoref. – Toshkent: 2021.

